

¹ XALQARO XUSUSIY HUQUQNING PREDMETI, MANBALARI VA
SUBYEKTLARI, XALQARO XUSUSIY HUQUQNING TUZILISHI (TARKIBIY
QISMLARI)

Xursanov Furqat Alisher o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti
“ Yurisprudensiya “ (faoliyat turlari bo'yicha)
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Nomozov Husan

Ilmiy rahbar: Termiz Davlat Universiteti
Yuridik fakulteti “ Jinoyat huquqi va Fuqarolik
protsessi “ kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Xalqaro xususiy huquqning predmeti, manbalari va subyektlarining keng talqin qilinishi, O'zbekiston Respublikasi va Fransiya davlatining milliy qonunchiligi va xalqaro huquq normalarining o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlari, xalqaro xususiy qonunchilikdagi muammolar va ularga takliflar.

Kalit so'zlar: Xalqaro xususiy huquq, sud va arbitraj qarori, chet el huquq normasi, Bustamante kodeksi, xalqaro shartnomalar, xalqaro tovarlar savdosi, konvensiyalar, umumiy va maxsus qism, pandect tizimi, kollizion normalar, aybsizlik prezumpsiyasi, oila kodeksi, vasiylik sudyasi, Fuqarolik kodeksi, fuqarolik protsessual kodeksi, Adliya vazirligi, fuqarolik guvohnomasi, FHDYO.

Xalqaro xususiy huquq fani huquq sohasining eng ko'lamli tarmog'I hisoblanadi. Bu fan asosan boshqa fanlardan xalqaro huquq sohasida keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Xalqaro xususiy huquqning negizini asosan uning predmeti tashkil etadi. Chunki har bir huquq sohasi birinchi navbatda predmeti bilan boshlanadi. Predmet xalqaro huquq sohasida normalar bilan ifodalanadigan va tartibga solinadigan ijtimoiy

¹ Xalqaro xususiy huquq darslik 2019

munosabatlardan iboratdir. Ijtimoiy munosabatlar asosan fuqarolik huquq munosabatlardan iborat bo'lgan oila, yer, mehnat, tadbirkorlik, yuk va yo'lovchi tashish, vorislik va meros huquqi, oldi-sotdi va ijara, intellektual mulk obyektlari va boshqa shunga o'xshash munosabatlardan tashkil topgan. Xalqaro xususiy huquq fanida predmetlar xalqaro huquq normalari va shartnoma, konvensiya, doktrina, deklaratsiya va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar bilan birgalikda boshqa davlatlarning ham ichki qonun hujjatlaridan foydalangan holda ham tartibga solib boradi. Faning predmeti boshqa huquq fanlari predmetidan yaqqol ajralib turadi, Chunki bu fan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning boshqa davlat firmalari, korxonalari va tijorat tashkilotlari va davlatning o'zini ham chet elementi bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatini o'z ichiga oladi va ularni mulkiy, nomulkiy, munosabatlarini tartibga solidi.² Har bir huquq sohasining manbasi bo'lgani singari xalqaro xususiy huquqning ham o'ziga xos manbalari mavjud. Manbalar asosan fanga tegishli barcha ma'lumot va axborotlarni, nizolarni qanday hal qilish uchun qanday qonun hujjatlaridan foydalanish kerakligi, ularni to'plab hisobga oladigan, muhim huquq normalari yig'indisidan iboratdir. Xalqaro xususiy huquq fani xalqaro shartnomalar va davlatlar ichki qonun hujjatlaridan foydalanib davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solidi. Lekin sud va arbitraj qarorlari xalqaro huquq hujjatlari va ichki qonun hujjatlariga qaraganda kam qo'llaniladigan manbasi hisoblanadi.³ Sud qarorlari asosan boshqa sudlar uchun qilinishi kerak bo'lgan ko'rsatma hisoblandi. Bu esa faqat sudlar qo'llashi kerak bo'lgan va ularning faqat sud jarayonida amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi. Chet el huquq normalari bilan birgalikda davlatlar o'z ichki qonun hujjatlariga tayanib ham ish ko'rishi mumkin. Masalan, O'zbekiston sudi ishni ko'rib chiqishda nafaqat o'zimizning qonun hujjatlariga balki chet el davlati qonun normalarini xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra qo'llaydi. Manbalar sifatida ikkita davlat qonunchiligini birxillashtirgan holda norma ishlab chiqilishi mumkin, Bunga misol tariqasida Bustamante kodeksi muhim

² O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

ahamiyat kasb etadi. Xalqaro xususiy huquq manbalari biryoqlama xarakterga ega bo'lmaydi. Ular asosan ikkiyoqlama, ya'ni bir tomondan xalqaro soha bo'yicha, boshqa tomondan esa davlatning o'z ichki huquq normalariga ko'ra qonunlaridan iborat bo'lishidir. Xalqaro shartnomalar bugungi kunda keng tarqalgan xalqaro xususiy huquqning manbayi hisoblandi. Bular har xil sohani tartibga solishga qaratilgan. Masalan, intellektual mulk, oila, vasiylik va meros, oldi-sotdi, shartnomaviy va boshqa munosabatlar. Xalqaro shartnomalarni tuzishdan maqsad bir davlat fuqarolari huquqini boshqa davlat hududida huquq va qonuniy manfaatini himoya qilishdir. Hozirgi kunda O'zbekiston juda ko'p shartnomalarni boshqa davlatlar bilan tuzmoqda va ratifikatsiya qilmoqda. Masalan, Xalqaro tovarlar savdosida mulk huquqi o'tishiga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risida Gaaga konvensiyasi, Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida konvensiya, Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish to'g'risida Jeneva konvensiyasi va boshqalar shular jumlasidan.

Xalqaro xususiy huquqda subyektlar muhim rol o'ynaydi, chunki har bir huquqning subyektlari normalarni amalga oshirishda qatnashadi va ular orqali bu fan harakatga keladi. Ya'ni tegishli munosabatlar sohasida subyektlar bu normalarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishida bevosita ishtirok etadi. Subyektlar sifatida asosan jismoniy va yuridik shaxslar qatnashadi. Subyektlarning huquq layoqati va muomala layoqati qonunlarda belgilab qo'yilganidek vujudga keladi va bekor bo'ladi. Ya'ni huquq layoqati fuqaro tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va uning o'limi bilan bekor bo'ladi.⁴ Hozirgi kunda O'zbekiston fuqarosi chet elga borsa, uning huquq va erkinligi o'sha davlat qonuni yoki xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi, shuningdek chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar huquq va erkinliklari esa O'zbekistonda ham xalqaro huquq normalariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston o'zining davlati hududida ham, chet elda ham o'z fuqarolarining himoya qilinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Jismoniy shaxs huquqlari ko'proq uning shaxsiy qonunidir. Har bir huquq sohasida o'zining tuzilishi va tarkibiy qismi bo'lganidek, xalqaro xususiy huquq fani ham ma'lum bir tuzilishga

⁴ Fransiya Fuqarolik kodeksi

ega. Bu fanning tuzilishi boshqa fanlarga o'xshash. 1. Umumiy qism 2. Maxsus qism. Bu tuzilish fuqarolik huquqida ham mavjud. Lekin xalqaro xususiy huquq alohida huquq sohasi hisoblanadi. Fuqarolik huquqi ma'lum bir davlatda va uning hudidida amal qilsa, xalqaro xususiy huquq bir mamlakatda emas, chet el mamalakatlari o'rtasida keng qo'llaniladi. Fuqarolik huquqi bilan xalqaro xususiy huquq birgalikda pandect tizimiga ega. Umumiy qismda xalqaro sohadagi normalarni fuqarolik huquqiy munosabatda huquqni qo'llashni belgilab olish, chet el normalari mazmunini aniqlash va uni keng sud tizimi va boshqa organlar tizimida keng qo'llash, boshqa davlatlar huquqiga havola etish va uni qo'llash, huquq normalari turlari va shartnomalar, kollizion normalar tushunchasi. Huquq qo'llanilishi va retorsiyalar va boshqa narsalar haqoda ma'lumot olishimiz mumkin. Xalqaro xususiy huquq maxsus qismida fuqarolik huquq tarkibiy bo'limlariga o'xshash normalardan iborat. Masalan, bitimlar, intellektual mulk, shyoviy huquqlar, vakillik, da'vo muddati, vorislik, yuk va yo'lovchi tashish, xalqaro hisob-kitoblar va boshqa munosabatlar mavjud. Fanning tarkibiy tarmoqlari uning predmeti bilan ifodalanadi. Maxsus qismda mehnat migrantlari va mutaxassislar uchun xalqaro mehnat huquqi keng qo'llaniladi. Aslida xalqaro mehnat huquqi xalqaro ommaviy huquqda keng qo'llaniladi xalqaro xususiy huquqqa qaraganda. Bundan tashqari notarial harakatlar fuqarolik huquqiy munosabat bo'lgani uchun bu munosabatlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy bitimlar va nizoni sud va arbitraj sudida ko'rib hal etish muhim ahamiyat kasb etadi maxsus qismda.

Fransiya qonunchiligiga binoan qabul qilingan qonunlari faqat oldinga qarab harakatlanadi, ular orqaga qaytish kuchiga emas, bu xususiyati bilan O'zbekiston qonunchiligi bilan o'xshash tomonlari mavjud. Fransiyada sudyalar havola qilingan umumiy me'yorlarga ko'ra hukm qilmasligi, ya'ni har qanday holatlarni aniq tekshirib, adolatli, qonuniy qaror qabul qilishi kerakligibayon qilingani munosabati bilan bizning ichki kodekslarimizda ham nazarda tutilgan. Fransiya qonunchiligida ham O'zbekiston qonunchiligiga mos aybsizlik prezumpsiyasi mavjud va fuqarolar huquqi aybsizligi isbotlunguncha aybdor bo'lmaydi. Fransiyaga kelgan chet el fuqarosi musofir bo'lib yurgan paytida Fransiya qaysi davlatlar bilan shartnoma

tuzgan bo'lsa o'sha davlat fuqarolariga nisbatan Fransiyada yashaydigan fuqarolarga va Fransiya fuqarolariga beriladigan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi va ularni bajaradi. Bizning konstitutsiyamizda ham chet el fuqarolari ham O'zbekiston qonunlarini bajaradi. Fransiya qonunchiligiga ko'ra boshqa shaxslar manfaati uchun homiladorlik va bola tug'ish nikohning haqiqiy emasligiga sabab bo'lishi mumkin.⁵

Ya'ni O'zbekiston Oila kodeksida ham biron narsadan manfaatdorlik evaziga nikoh qurish soxta nikoh deb tan olioshi va tuzilgan nikoh haqiqiy emasligini nazarda tutgan. Fransuz qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi Fransiya fuqaroligini qabul qilgan bo'lsa va ular bilan bir xil yashash joyiga ega bo'lsa va ular ajrashgan taqdirda ham voyaga yetmagan shaxs ota-onalar qayerda yashashi va ajrashishiga qarab Fransiya fuqaroligida qoladi. Bu tuproq huquqi hisoblanadi va bizning davlat qonunchiligida ham qo'llaniladi. Fransiya qonunchiligi bo'yicha alohida vasiylik sudyas maqomi mavjud, bizning mamalkatda esa bunday sudya yo'q, faqat fuqarolik sudi sudyasi vasiylik bo'yicha ishni sudda ko'rib chiqadi. Vasiylikni ko'rib chiqishda u o'z-o'zidan, ota-onalar, qarindoshlar va prokuratura organi tomonidan qo'zg'atilgan da'voga binoan ishni olib boradi. Fransiya Fuqarolik kodeksi 396-moddasiga asosan vasiylik tayinlangan shaxs o'zining noloyiq, beparvo, noto'g'ri va firibgarligi tufayli olib qo'yilishi mumkin. Agar sud vasiylik bolaning manfaatiga zid kelsa undan vasiylikni olib qo'yishi mumkin. Bu bizning Oila kodeksida ham nazarda tutilgan. Fransiya qonunchiligi bo'yicha sudlar tomonida chiqarilgan hukm va qarorlar sudda taraf bo'lmagan va vakil bo'lmagan shaxslarga ham ta'sir qiladi. O'zbekistonda uy nizolari bo'yicha va boshqa nizolar bo'yicha chiqarilgan sud qarorlari taraflardan ytashqari ularning uyida yashayotgan bolalari va yaqin qarindoshlariga ham ta'sir qiladi. Sudda isbotlash masalasi ham taraflarga yuklatiladi, sud esa keltirilgan vajlar to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab, qaror chiqaradi, bizning davlatda ham isbotlash taraflarga yuklatiladi. Fransiyada sudlar ishni ko'rayotganda boshqa davlat hududidagi qonun normalarini aniqlash va sharhlash uchun Fuqarolik-

⁵ France civil system

protsessual kodeksiga binoan Adliya vazirligiga murojaat qiladi. O'zbekiston Fuqarolik-protsessual kodeksiga binoan Adliya vazirligi chet el normalarini izohlaydi va sharhlaydi. Fransiyada instansiya sudi bosh kotibi o'z fuqaroligini tasdiqlab bergan shaxslarga fuqarolik guvohnomasi berish kerak. Agar guvohnomani bermasa, fuqaro Adliya vazirligiga murojaat qilishi mumkin, lekin bizning qonunchilikka ko'ra instansiya sudida fuqarolik masalasi bo'yicha uning ustidan yuqori turuvchi instansiyaga chiqishi mumkin. Fransiyada fuqarolik holati dalolatnomalari FHDYO tomonidan beriladi, ular o'z vazifalarini davlat prokurori nazorati ostida bajaradi, bizning mamlakatda esa FHDYO mudiri tomonidan nazorat qilinadi.

Xulosa qismi; Hozirgi kunda xalqaro xususiy huquq fanini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bugungi kunda davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar rivojlanib taraqqiy etib bormoqda. Hozirgi paytda davlatlarning ichki qonun hujjatlari boshqa davlat qonunchiligiga zid kelishi oqibatida kollizion normalar kelib chiqmoqda, bu normalarni bartarf etish ko'pgina davlatlar uchun global muammodan biri bo'lib turibdi. Shuning uchun davlatlar qonunchiligini birxillashtirish, ya'ni unifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Birxillashtirish natijasida kollizion masalalar hal qilinar edi. Bustamante kodeksi turli qonunlarni birxillashtirish orqali davlatlar o'rtasidagi kollizionmasalani hal qilmoqda. Ushbu kodeksga o'xshagan yana xalqaro shartnomalar tuzish va ko'paytirish lozim. Keyin davlatlar o'rtasida hozirgi kunda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda bir-biri bilan aloqalar kuchayib, rivojlanib borayotgani uchun integratsiyalashuv jarayonini yanada kuchaytirish lozim. Hozirgi kunda yurisdiksiya masalasida ham ko'plab davlatlar o'rtasida nizolar mavjud. Bu nizoni hal ilish uchun har bir davlat sudiga tegishli bo'lgan ishni ko'rib chiqish vakolatini ko'rib hal qilishni yaxshilab belgilab olish kerak. Sudlar tomonidan chet ellik shaxslar ishini ko'rishda davlatlar ichki va xalqaro huquq normalariga muvofiq, yurisdiksiya masalasini hal qilish va ko'rib chiqishni birxillashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda davlatlar milliy huquq tizimi har xil va bir-biriga to'g'ri kelmaydi, bu bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Chet el sudlari tomonidan qo'llanilgan qonunlar asosida chiqarilgan qarorlar boshqa

davlat chet el sudi tomonidan ijro etilishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqmoqda, Bu muammolarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish lozim. Hozirda chet normalarini izohlash va sharhlashda davlat organlari qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki tildagi va boshqa davlatlar madaniyatida birmuncha farqlar mavjud. Zamonaviy texnologiyalar haddan tashqari rivojlanib borgan sari kiberjinoyatchilik ham kuchayib boradi. Bu jinoyatlar oldini olish uchun yangi-yangi xalqaro shartnomalar tuzish va tartibga solish lozim. Shunday qilib, xalqaro huquq sohasidagi qonun normalari va xalqaro shartnomalarni uyg'unlashtirib borish mavjud muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.Xalqaro xususiy huquq darslik 2019
- 3.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
- 4.O'zbekiston Respublikaqsi Oila kodeksi
- 5.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi
- 6.France Civil Code
- 7.French International Law system
- 8.<https://www.fd.ulisboa.pt>
- 9.<https://www.wipo.int>
- 10.<https://store.legal.thomsonreuters.com>
- 11.<https://library-tsul.uz>
- 12.<https://renessans-edu.uz>
- 13.<https://namdu.uz>
- 14.<https://cyberleninka.ru>
- 15.<https://oriens.uz>
- 16.<https://sciencebox.uz>